

TIJORAT BANKLARINI AUDIT QILISHDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARINING O'RNI

Azamatova Gulsara Isoqovna
gulsaraazamatova@mail.ru

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti, o'qituvchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17735814>

Annotation: This article discusses the importance and benefits of using international standards of auditing in the financial reporting of the commercial bank and provides information on the legal basis for the transition to international standards of auditing in our country, as well as its important role in ensuring transparency for foreign investors.

Key words: internal audit, international standards of auditing, commercial bank, foreign investor, external audit, standards of internal audit, financial reports, international federation of accountants.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining ichki auditida auditning xalqaro standartlaridan foydalanishning ahamiyati va afzalliklari muhokama qilinib, mamlakatimizda auditning xalqaro standartlariga o'tishning huquqiy asoslari, shuningdek, uning xorijiy investorlar uchun ochiqlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, auditning xalqaro standartlari, tijorat banki, xorijiy investor, tashqi audit, ichki audit standartlari, moliyaviy hisobotlar, xalqaro buxgalterlar federatsiyasi

2021 yil 25 fevralda O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi" O'RQ-677-Qonuni qabul qilinishi natijasida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish to'g'risidagi" Nizom qabul qilishini respublikamizda faoliyat yurituvchi auditorlik tashkilotlar faoliyatida sezilarli burilish yasab berdi, endi ular korxonalar, xususan, banklarni tashqi auditdan o'tkazishda auditning xalqaro standartlaridan foydalanishadi (auditning milliy standartlari bekor qilinmadi, ammo muomaladan chiqarildi). Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, xorijiy investorlarni jalb qilish uchun ularga ishonchli ma'lumotlar taqdim etishdir.

Tijorat bank-bu shunday tashkilotki, uning asosiy vazifasi omonatlarni jalb qilish va ularni qarzga berishdir. U yana boshqa turli moliyaviy xizmatlarni, masalan, qimmatbaho metallar oldi-sotdisi, xorijiy valyutalar va bir qancha moliyaviy instrumentlar savdosi bilan ham shug'ullanadi. Xalqaro tijorat banki shunday bankki, u milliy chegaralarni oshib o'tib o'z faoliyatini bir nechta mamlakatlarda amalga oshiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarida ichki audit xizmati bank nazoratining muhim dastagi hamda bank faoliyatini tekshiruvchi bo'lim sifatida yuritiladi. Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini amalga oshirish "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar" to'g'risidagi Nizomda¹ [1] batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, har bir tijorat banki o'zining faoliyatini samarali tashkil etish uchun o'zining ichki hujjatlari sifatida ichki audit to'g'risidagi nizomini ishlab chiqadi. Yuqoridagi nizomda ichki auditni tashkil etishda foydalaniladigan ichki audit standartlari belgilangan² [2]:

-bank nazoratiga oid Bazel qo'mitasining banklarda ichki auditga oid tamoyillari

¹ Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom, 2021 yil 7-mayda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami-3302

² www.lex.uz

- ichki auditorlar institutlarining ichki auditning xalqaro kasbga oid standartlari
- xalqaro buxgalterlar federatsiyasining auditning xalqaro standartlari

Auditning xalqaro standartlari – bu auditorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, natijalarni rasmiylashtirish va baholash, shuningdek, auditorlarni tayyorlash, malakasini oshirish va baholash tartibiga qo'yiladigan yagona talablarni belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ya'ni auditorlik faoliyatining standartlari – bu auditorning o'ziga, audit jarayoniga va auditorlik hisoboti hamda xulosasiga qo'yiladigan talablar to'plami³ [3]. 2020 yil 1 yanvardan 13 auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi⁴ [4].

O'zbekistonda bir qancha tijorat banklari o'zlarining qimmatli qog'ozlarini London Fond Birjasiga joylashtirishyapti. Sanoat Qurilish Bank O'zbekiston tarixida birinchi bo'lib London fond birjasida 300 mln. AQSH dollari miqdorida korporativ yevroobligatsiyalarini joylashtirgan⁵ [5]. Albatta, buni amalga oshishida SQB tomonidan barcha moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga transformatsiya qilinishi hamda xalqaro nufuzli auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik xulosasini berilishiga erishishi yotibdi. Xalqaro moliya bozorlari uchun o'zlarining ishtirokchilari o'rtasida ishonchni ta'minlashda auditorlik hisobotlarini roli juda muhim sanaladi. Biznes tashkilotlari esa muhim moliyaviy qarorlarini qabul qilish hamda shaffoflikni ta'minlash uchun auditorlik hisobotlaridan foydalanadilar.

Auditning xalqaro standartlarining ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, ular global moliya bozorlarida mustahkamlik, taqqoslanuvchanlik va shaffoflikni ta'minlash orqali moliyaviy hisobotlarni audit qilish va jamoatchilik ishonchini oshirish uchun birlashgan, yuqori sifatli konseptual asos yarata oladi. Amaliy ahamiyati transchegaraviy investitsiyalarini yengillashtirish, iqtisodiyotni kuchaytirish va manfaatdor tomonlarni ishonchli moliyaviy ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi rolda yotsa, nazariy ahamiyati auditor skeptizismni yaxshilaydigan, samarali audit amaliyotlarini va mustahkam moliyaviy tizimlarni ta'minlaydigan ishonchli konseptual asosni ta'minlashda ko'rish mumkin. Shuningdek, auditning xalqaro standartlarining nazariy poydevori audit sohasi uchun kuchli nazariy asosni ta'minlovchi samarali auditlarga auditor skeptizismi va xulq-atvorini shakllantiruvchi tamoyillar asosida qurilgan. Auditning xalqaro standartlari audit ilmiy taraqqiyotida muhim bo'lgan audit sifatidagi o'zgarishlarni tadqiq qilish va bilimlarni sintez qilishga yordam beruvchi tadqiqotning kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Auditning xalqaro standartlari tijorat banklarining ichki auditini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi chunki ular yuqori sifatli, ishonchli moliyaviy hisobotlar bilan ta'minlaydi, xorijiy investorning ishonchini oshiradi, turli banklar va mamlakatlar aro qiyoslanuvchanlik va shaffoflikni yaxshilaydi va bank sektori haqida jamoatchilikning fikrini mustahkamlaydi. Bu standartlardan foydalanish orqali firibgarlikni oldini olish, resurslardan samarali foydalanish va aksionerlar tomonidan ishonchli dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilinishiga erishish mumkin shuningdek, ular global moliyaviy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ham ta'minlashga

³ R.D.Dustmurotov "Auditning xalqaro standartlari" O'quv qo'llanma-2019.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekistonda auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3946-sonli Qarori

⁵www.sqb.uz

xizmat qiladi. AXS bankning moliyaviy hisobotlar auditi uchun ularning moliyaviy holatini to'g'ri va adolatli ko'rinishini ta'minlovchi, moliyaviy hisobotlarini aniq va oshkora yozilishiga yordam beruvchi umumiy konseptual asosni tashkil etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekistonda auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3946-sonli Qarori
2. Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom, 2021 yil 7-mayda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami-3302
3. R.D.Dustmurotov "Auditning xalqaro standartlari" O'quv qo'llanma-2019.
4. www.sqb.uz
5. www.lex.uz